



OILA VA SHAXS TARBIYASI: ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR

Kurbanbayeva Zuxra Zaripbayevna

Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs talabasi Fakultet: pedagogika -
psixologiya va ijodiy ta'lim Pedagogika yo'nalishlari

Arislanbayeva A.B.

Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20696331>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 13-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 15-iyun 2026 yil

KEY WORDS

*oila instituti, shaxs tarbiyasi,
pedagogik madaniyat, psixologik
muhit, determinant, raqamli avlod,
ijtimoiylashuv.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv va raqamlashish sharoitida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar tahlil qilingan. Oila institutining bola ijtimoiylashuvidagi o'rni, otalarning pedagogik madaniyati va oilaviy muhitning psixologik determinantlari tizimli yoritilgan.

Insoniyat tamaddunining rivojlanish bosqichlari shuni ko'rsatadiki, har qanday jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyati o'sib kelayotgan avlod tarbiyasining sifati bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiy maqomga ega bo'lishi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi va mustaqil hayotga moslashishi (ijtimoiylashuv) bevosita oila bag'rida boshlanadi. Bugungi shiddatli axborotlashish asrida oila institutining tarbiyachilik funksiyasi yangi pedagogik va psixologik yondashuvlarni taqozo etmoqda. Shu bois, oilada shaxs shakllanishining psixologik determinantlari, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish va bu orqali barkamol shaxsni voyaga yetkazish zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimining eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, oila bola uchun nafaqat birinchi ijtimoiy muhit, balki emotsional himoya va barqarorlik maskanidir. Shaxs rivojlanishida quyidagi psixologik omillar yetakchi o'rin tutadi:

Emotsional bog'liqlik: Go'daklik va ilk bolalik davrida ota-ona (ayniqsa, ona) bilan o'rnatilgan ijobiy emotsional aloqa bolaning dunyoga nisbatan bazaviy ishonchini shakllantiradi.

Psixologik iqlim oiladagi o'zaro munosabatlar tizimi (demokratik, avtoritar, liberal) bola xarakterining poydevorini belgilaydi. Demokratik muhitda ulg'aygan bolalarda mustaqillik, yuqori Ego-konsepsiya (o'zini anglash) va kreativlik rivojlanadi.

Identifikatsiya jarayoni bola ong osti darajasida ota-onaning xulq-atvor modellarini, nizoli vaziyatlarda o'zini tutish strategiyalarini ko'chirib oladi (absorbsiya).

Zamonaviy pedagogika va ijtimoiy psixologiyada «Oilaviy tarbiya transformatsiyasi» eng ko'p o'rganilayotgan dolzarb fenomenlardan biridir. Jamiyatning raqamlashishi, globallashuv va iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi oiladagi an'anaviy tarbiya modellari tubdan yangilamoqda. Bugungi kunda oilaviy tarbiya tizimi chuqur institutsional va mazmunli transformatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Axborot jamiyatining talablari natijasida an'anaviy avtoritar va paternalistik tarbiya usullari (buyruq, qat'iy taqiq, verbal va jismoniy jazo)

o'z samarasini yo'qotdi. Ularning o'rnini innovatsion-hamkorlik pedagogikasi, ya'ni bola shaxsini sub'ekt sifatida tan oluvchi demokratik modellar egallamoqda. Ushbu transformatsiya jarayonida ota-onaning roli faqat moddiy ta'minot yetkazib beruvchidan, bolaning emotsional intellektini rivojlantiruvchi, uning psixologik inqirozlarida ko'mak beruvchi «fasilitator» (yo'naltiruvchi) darajasiga ko'tarildi. Shu bilan birga, globallashuv va virtuallashuv oiladagi an'naviy jismoniy nazorat tizimini o'zgartirib, ota-onalardan yuqori raqamli madaniyat va farzand bilan vertikal emas, balki gorizontol (do'stona) muloqot o'rnatishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda tarbiyaning an'anaviy avtoritar usullaridan (buyruq, taqiq, jazo) voz kechib, innovatsion-hamkorlik pedagogikasiga o'tish talab etilmoqda:

Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi: XX asr boshida jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot..." degan konsepsii bugungi XXI asr raqamli jamiyati uchun ham o'zining strateg qimmatini yo'qotmagan. Zapovednik pedagogicheskogo fakulteta vazifasi — eto milliy an'analar ichiga qulflanib qolish yoki aksincha, g'arb madadantiga ko'r-ko'rona taqlid qilish emas, balki za obuchenie v zimnie mesyasы uyg'unligini (sintezini) yaratishdir. Oila muhitida bola qalbida ona tiliga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat v milliy axloq qoidalarini ili milliy uzlikni anglash poydevori qo'yilsa, ikkinchi tomondan unga xorijiy tillar, raxamli texnologar va tanqidiy tafakkur usullarini o'rgatish orqali zamonaviy dunyoqarash shakllantiriladi. Bunday uyg'un muhitda ulg'aygan shaxs o'z milliy ildizlarini mahkam ushlagan xolda, dunyo miqyosida raqobatlasha oladigan globalnyy intellektualnyy qiyofaga ega bo'ladi. Ota-onalarning pedagogik kompetentligi: Zamonaviy ota-ona nafaqat moddiy ta'minotchi, balki bolaning yosh davrlari psixologiyasini tushunuvchi, uning iqtidorini vaqtida payqay oluvchi "pedagog-konsultant" bo'lishi lozim.

Mehnat va mas'uliyat tarbiyasi: Oilada bolaga yoshiga mos majburiyatlarni yuklash orqali unda ijtimoiy mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Bugungi kunda oilaviy tarbiya tizimi mutlaqo yangi fenomen — "raqamli uzilish" (digital divide) bilan to'qnash keldi. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual olam bola ongini shakllantiruvchi kuchli vositaga aylandi. Bu vaziyatda pedagogik va psixologik yechimlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- Cheklash va taqiqlash emas, balki mediamadaniyatni shakllantirish.
- Oila ichidagi "raqamli gigiena" qoidalarini joriy etish (masalan, kechki ovqat paytida gadgetlardan foydalanmaslik).
- Virtual muloqot o'rnini bosa oladigan sog'lom oilaviy jonli muloqot, birgalikdagi sayohatlar va kitobxonlik soatlarini tashkil etish.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar asosida quyidagi muhim umumlashtiruvchi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Pedagogik-psixologik tizimlilik: Shaxs tarbiyasi oiladagi stixiyali (o'z-o'zidan bo'ladigan) jarayondan tizimli, maqsadli pedagogik faoliyatga aylanishi zarur. Ota-onalarning psixologik savodxonligi va pedagogik kompetentligi bolaning yosh inqirozlari davridan (infantillik, destruktiv xulq-atvor xavfi) muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi bosh omil hisoblanadi.

2. "Gadgetlar deprivatsiyasi" va muloqot: Zamonaviy sharoitda oila ichidagi virtual uzilishlarni bartaraf etishning yagona yo'li — avtoritar taqiqlar emas, balki oilada emotsional-pozitiv muhitni kuchaytirish, farzand bilan interaktiv (muloqotga asoslangan) va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishdir.

3. Uch tomonlama konsensus (Hamkorlik uchburchagi): Zamonaviy yondashuvlar doirasida "Oila — Ta'lim muassasasi (bog'cha, maktab, OTM) — Mahalla" zanjirining ijtimoiy-pedagogik hamkorlik mexanizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish lozim. Milliy qadriyatlar va umumbashariy tendensiyalarning oila muhitida to'g'ri integratsiyalashuvi shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantiradi.

Amaliy jihatdan, jamiyatda sog'lom shaxs tarbiyasini tizimli yo'lga qo'yish maqsadida:

- Yosh oila quruvchilar uchun nikohdan oldin majburiy psixologik-pedagogik treninglar va "Ota-onalik maktablari" faoliyatini kengaytirish;

- Raqamli muhitda bola xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan "Media-ota-ona" milliy dasturlari va qo'llanmalarini ishlab chiqish;

- Oilaviy munosabatlardagi psixologik destruksiylar va inqirozlarni erta aniqlovchi mahalliy ijtimoiy-psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlash va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash — nafaqat alohida bir shaxsning kamoloti, balki butun boshli davlat va jamiyatning intellektual, ma'naviy hamda milliy xavfsizligini kafolatlovchi eng strategik sarmoyadir.

Sog'lom va mustahkam shaxs tarbiyasi oiladagi pedagogik tizim va psixologik muhitning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Oila jamiyatning transformatsiya jarayonlariga moslashgan holda, o'z ichidagi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishi shart. Shaxs kamolotida oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligining samarali mexanizmini yaratish davr talabidir. Oilada sog'lom muhitni ta'minlash — kuchli va barqaror jamiyat kelajagiga qo'yilgan eng ishonchli poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. – Toshkent, 2007.
3. Эйдемиллер Э.Г., Юстискис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.: Питер, 2008